



MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLANING SHAXS SIFATIDA RIVOJLANISHDA TARBIYANING O'RNI.

Baxtiyorova Farangiz Shaxriddinovna

Navoiy Innovatsiyalar universiteti 1-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'limda shaxs sifatida rivojlanishda tarbiyaning o'rni o'rganilgan, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, axloqiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishda tarbiyachining roli, ta'lim va tarbiya jarayonining o'zaro bog'liqligi hamda o'yin faoliyatining ahamiyati tahlil qilingan. Maqola asosan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari va soha mutaxassisleri uchun mujallangan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, bola, shaxs sifatida rivojlanish, o'yin faoliyati, tarbiya, ta'lim va tarbiya uyg'unligi, namuna ko'rsatish, savol-javob, ko'rgazmali usul, Hikoya qilish, tajriba va kuzatuv.

Abstract: This scientific article examines the role of upbringing in the development of personality in preschool education. It also analyzes the role of the educator in the intellectual, moral, physical, and social development of preschool-aged children, the interconnection between education and upbringing, as well as the importance of play activities. The article is mainly intended for preschool education teachers and specialists in the field.

Keywords: Preschool education, child, personality development, play activity, upbringing, harmony of education and upbringing, role modeling, question-and-answer method, visual methods, storytelling, experimentation and observation.

Аннотация: В данной научной статье изучается роль воспитания в формировании личности в системе дошкольного образования. Также анализируется роль воспитателя в умственном, нравственном, физическом и социальном развитии детей дошкольного возраста, взаимосвязь обучения и воспитания, а также значение игровой деятельности. Статья в основном предназначена для воспитателей дошкольных образовательных организаций и специалистов данной сферы.

Ключевые слова: Дошкольное образование, ребенок, развитие личности, игровая деятельность, воспитание, единство обучения и воспитания, показ примера, вопросно-ответный метод, наглядный метод, рассказывание, экспериментирование и наблюдение.

Bugungi kunda maktabdagacha ta'lim tizimini ta'limning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda bolaning shaxs sifatida rivojlanishida poydevor qo'yiladigan davr bo'lib, tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya jarayoni bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga



olgan holda tashkil etiladi. Tarbiya orqali bolalarda mustaqillik, mas'uliyat, mehnatsevarlik madaniyati kabi muhim shaxsiy sifatlar shakllantiriladi.

Abu Ali ibn Sino ham tarbiyaning erta yoshdan boshlanishi zarurligini uqtiradi. Uning “Tib qonunlari” va “Axloq haqida risola” asarlarida bolaning jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishida tarbiyaning muhim o‘rni borligi qayd etilgan. Ibn Sinoning fikricha, bolaga yoshligidan berilgan tarbiya uning kelajakdagi fe‘l-atvori va jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi.

Ta'lim usullari-bu pedagog professional ravishda egalik qilishi shart bo'lgan o'quv jarayonining muhim va juda murakkab tarkibiy qismlari. Maktabgacha ta'limda tarbiya berish usullari quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'linadi. 1.Namuna ko'rsatish(rol o'ynash usuli)

Bu usul orqali bolalar nafaqat bilimlarni,balki jamiyatda to'g'ri xulq-odobni ham o'zlashtiradilar.

2. Savol-javob (Dialogik usul)

Savol-javob usuli bolalarni muloqot qilishga, o'z fikrlarini ifoda etishga o'rgatadi.

3.O'yin faoliyati

O'yin orqali bolalar ko'plab ko'nikmalarni o'zlashtiradilar ijtimoiy munosabatlar,mehnat, ijtimoiy munosabatlar, mehnat, jismoniy va hissiy rivojlanish.

4.Ko'rgazmali usul

Bu usul bolalarning ko'rish va eshitish orqali yangi ma'lumot olishga yordam beradi.

5.Hikoya qilish

Bolalarga turli hikoyalar, ertaklar orqali tarbiyaviy xulq-atvorni shakllantirish hikoya qilish bolaga axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni o'rgatadi

6.Tajriba va kuzatuv (Eksperimetal usul)

Bu usul bolalarga tajriba qilishni va o'z fikrlarini asoslashni o'rgatadi.

Tarbiya berish vositalari.

Tarbiya berish vositalari tarbiyaviy ta'sirni kuchaytirishga yordam beruvchi vositalar bo'lib, ular turli shakllardan bo'lishi mumkin.

1.O'quv materiallari

Bu bolalarga bilim berish uchun ishlatiladigan kitoblar, o'yinchoqlar, vizual materiallar (rasmlar videolar) maktabgacha bolaning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi.

2. Tashqi muhit

Tarbiya bilan bog'liq turli o'yinchoqlar, tabiatni kuzatish va unga ta'sir qilish usullari bu borada qo'llaniladi.

3.Ijtimoiy-tarbiyaviy vositalar

Tarbiya berish jarayonida guruhdagi boshqa bolalar bilan o'zaro muloqot qilish birgalikda ishlarni



amalga oshirish va bir-biriga yordam berish kabi ijtimoiy munosabatlar ham muhim vosita hisoblanadi.

4. San'at va musiqa orqali bolalar hissiy, estetik tafakkurni shakllantiradilar.

Xulosa qilib aytganda tarbiya bu-inson ziynati, shaxsni kamolot ga eltuvchi yo'ldir tarbiya uzoq davom etadigan va uzluksiz jarayon bo'lib, kishining umri oxirigacha davom etadi. Inson bolasi qobiliyat bilan emas, balki biror bir qobiliyatining ro'yobga chiqarish va rivojlanish uchun manba bo'lgan layoqot bilan dunyoga keladi. Bu uyg'onish jarayoni aynan ijtimoiy muhitda sodir bo'ladi, takomillashadi va bolaning komil shaxs sifatida kamol topishda, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida xizmat qiladi. Agarda tarbiya dasturlarini bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirishsa, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni va kundalik mashg'ulotlar orqali singdirisak, ota-onalar bilan yaqin hamkorlik o'rnatib farzand tarbiyasi bilan shug'ullansa, bola shaxs sifatida sog'lom va kamolotga intiluvchi tarzda rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qadirova F. R. Maktabgacha pedagogika - Toshkent o'qituvchi nashriyoti. 2020
2. Ibn Sino, "Shifo" (al-Qanun fi al-Tibb). – Toshkent: Sharq, 2004.
3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi T o'qituvchi 1993.